

**XIX ASRNING 80-YILLARI O'RTALARI - XX ASR 30-YILLARI  
BOSHLARIDA O'ZBEKISTON HUDUDIDA ANTIK DAVR SHAHARLARIDA  
ARXEOLOGIK IZLANISHLAR NATIJALARI.**

*Karimov Zafar Bekturdiyevich*

*Urganch davlat universiteti Tarix kafedrasи o'qituvchisi*

*e.mail: Temurmalik154@gmail.com*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi hududlarida turli nomdagi arxeologiya ekspeditsiya va guruhlari qadimshunoslari rahbarligida aholi tomonidan qoldirilgan madaniy-meros obyektlarida keng qamrovli tarzda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolar antik dunyosi jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va etnik-madaniy jarayonlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada XIX asrning 80-yillari o'rtalari - XX asr 30-yillari boshlarida O'zbekiston hududida antik davr shaharlarida arxeologik izlanishlar natijalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlari:** Afrosiyob, Eski Axsiket, Anov I, IV, Varaxsha, Zamakhshar.

**Аннотация:** Предметы, полученные в результате обширных археологических исследований объектов культурного наследия, оставленных населением под руководством археологов из различных названных археологических экспедиций и групп на территории Республики Узбекистан, имеют большое значение для освещения прошлых социально-экономических отношений и этнокультурных процессов в древнем мировом обществе. В статье рассматриваются результаты археологического изучения древних городов Узбекистана в период с середины 80-х годов XIX века до начала 30-х годов XX века.

**Ключевые слова:** Афросиаб, Старый Аксикет, Анов I, IV, Варахша, Замахшар.

**Annotation:** The objects obtained as a result of extensive archaeological research in the cultural-heritage objects left by the population under the leadership of

archaeologists from various named archaeological expeditions and groups in the territories of the Republic of Uzbekistan are of great importance in illuminating the past socio-economic relations and ethnic-cultural processes in ancient world society. The article discusses the findings of archaeological study in ancient cities in Uzbekistan between the mid-80s of the nineteenth century and the early 1930s of the twentieth.

**Key words:** Afrosiyab, Old Akhsiket, Anov I, IV, Varakhsha, Zamakhshar.

**Kirish.** Rossiya imperiyasi Turkiston xalqlarining tarixi, urf-odatlari, qadimgi qo'lyozmalarini tadqiq qilish orqali o'lkada o'zining mustamlakachilik tuzumini mustahkamlamoqchi edi. Turkiston arxeologik yodgorliklari va ulardan topilgan moddiy ashyolarni o'rganishni dastavval rus Arxeologiya havaskorlari va o'lkashunoslari boshlab berdi. V. V. Bartoldning tashabbusi bilan 1895-yilda Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi tashkil qilindi va dastlabki arxeologik qazishma ishlari olib borila boshlandi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekiston hududida olib borilgan dastlabki tadqiqot ishlarida V. V. Bartolod, N. I. Veselovskiy, V. L. Vyatkinlarning xizmati katta bo'ldi. Biroq arxeologik yodgorliklar keng o'rganilmaganligi va Turkiston arxeologiya to'garagi mablag' bilan ta'minlamaganligi sababli eng qadimgi davrlarga oid ma'lumotlar kam to'plandi. Shunisi ahamiyatlici, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'zbekiston tarixini yoritishda muhim va dastlabki qadamlar qo'yildi. XX asr adabiyotlar va mustaqillik yillaridan o'troq ziroatkor aholi tomonidan bunyod qilingan turar-joylarda arxeologik tekshirishlar natijalarini quyidagi tarixiy davrlarga ajratish mumkin.

Birinchi tarixiy davr – XIX asrning 80-yillari o'rtalari - XX asr 30-yillari boshlari

Ikkinci tarixiy davr – XX asr 30 yillari-1940 yillari;

Uchinchi tarixiy davr – XX asr 40 yillari o'rtalari-1990 yillari;

To'rtinchi tarixiy davr – 1991-2023 yillari manbashunosligi.

**Asosiy qism.** Birinchi tarixiy davrda quyidagi ma'lumotlar jalg qilinadi. Tarixning yozuv vujudga kelishigacha qadar tarixini yoritishda moddiy ashyolar va arxeologik

yodgorliklarning o'rni muhim hisoblanadi. O'zbekiston hududidagi bunday arxeologik obyektlardan biri Markaziy So'g'd dehqonchilik vohasining qadimiy shaharlaridan biri-Smarkanda-Marakanda-Afrosiyob-Samarkand hisoblanadi. V.L.Vyatkin, M.E.Masson, V.V.Bartold asarlarida Afrosiyob yodgorligi to'g'risida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar tadqiqotchilarning shaharning tarixini o'rganishga ochqich kalit vazifasini bajargan [1]. Rossiya davlati imperatori maxsus farmoni bilan tashkil qilingan arxeologiya komissiyasi ruxsati bilan 1885-yilda sharqushunos va arxeolog olim N.I.Veselovskiy Farg'ona vodiysida Eski Axsiketda qisman qazishma ishlarini olib borishi natijasida olingan ashylar o'rta asr jamiyati rivojlanishini yoritgan [2]. Tadqiqotchi yodgorlikning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish tarixini o'rganishga e'tibor bermaganligi bois uning ilk tarixiy asosi ochiq holda qolgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra 1895-yilda Rossiya imperatori arxeologiya komissiyasi ruxsati bilan Fransiya vakillari Shafonjon va Bonvalogo Afrosiyobni o'rganish ishida kimyoviy uslub qo'llashgan, natijada yodgorlikning ming yillik tarixini yoritadigan moddiy ashylar, ularning bezaklari qora rangga aylanib, ilmiy tahlil asoslarini olish imkoniyati yo'qqa chiqarilgan [3].

Natijada O'zbekiston viloyatlarida (Samarqand va Farg'ona), boshqa viloyatlarida XX asr boshlarigacha aholi tomonidan qoldirilgan turar-joylarda qazishma ishlari olib borilmagan. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilinishicha 1904-yilda amerikalik geolog olim R.Pampelli hamda nemis arxeologi E.Smidt hamkorligida Kopetdog' oldi etagida joylashgan Anov va Murg'ob daryosi havzasidagi Marvda tekshirish ishlarini olib borib, olingan ashylar natijalari asosida Anov I, IV tarixiy xronologiyasi taklif qilingan [4]. V. L. Vyatkin Afrosiyob shahrida (1925; 1929-30), B. P. Denike qadimgi Termiz shahrida (1926-27), M. Ye. Masson Ohangaron vodiysida (1925- 28), Ayrитом harobalarida (1932-33) arxeologik tadqiqot ishlarini olib bordilar. 1928-1929 – yillarda A.Y.Yakubovskiy Shimoliy Xorazmda Ko'hna Urganch va Xo'jayli shahri yaqinida joylashgan Mizdahqonda qazishma ishlarini olib borib, dastlabki ilk ma'lumotlar asosida tarixni yoritgan [5]. XX asr 30 yillaridan Buxoro viloyatida arxeologik izlanishlar

boshlangan. 1930 yilda V.A.Shishkin rahbarligida Qorako'l tumani hududida joylashgan Varaxsha yodgorligida qazishma ishlari olib borishi natijasida olingan ashylar mil. avv III – II asrlarga tegishli bo'lgan [6]. 1934-yilda M.V.Voyevodskiy Xorazm hududida Zamaxshar yodgorligida tekshirish ishlarini olib boorish munosabati bilan moddiy ashylarni olishga tuyassar bo'lgan [7]. 1934-yilda B.A.Latinin Farg'ona vodiysida arxeologik yodgorligi Eylatanda qazishma ishlarini olib borilishin natijasida mil. avv IV – I asrlarga oid manbalarni olishga erishgan [8].

**Xulosa.** Shu tariqa, birinchi tarixiy davrda keng miqyosda arxeologik ekspeditsiyalar olib borilmaganidan O'zbekiston tarixining tosh davrlari va antik davri kam miqdorda yoritildi. Samarqand, Farg'ona va Xorazm hududlarida qadimgi aholi tomonidan bunyod etilgan yodgorliklarda qisman qazishma ishlari olib borilishi munosabati bilan dastlabki manbashunoslik fani vujudga keldi hamda turar-joylarda dastlabki qazish ishlari olib borilgan.

### **ADABIYOTLAR.**

1. Вяткин В.Л.Материалы к исторической географии Самаркандинского вилояте –СКСО, VII-Самарканд, 1902.20-21.Массон М.Е. К периодизации древней истории Самарканда//М,Наука, 1950, ВДИ-4-С.57-58. Бартольд В.В.Сочинения, 1963-1966-М-Л,Наука Т.І.-IV-С.138-139.
2. Веселовский Н.И. Отчёт о работах в Средний Азии в 1884-1885 гг//ОАК за 1882-1888 гг-Спб, 1891.-С 68-70.
3. Массон М.Е. Краткий очерк истории изучения Средней Азии в археологическом отношении//Труды САГУ-Ташкент, 1956. Вып LXXXI. –С 5-40.
4. Pampelly R. Explorations in Turkestan. Washington, 1908. Vol 1 – 234 p.
5. Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча//Известия государственной академии материальной культуры-Л-д,: 1930, Т-6, Вып 2, 68 с. O'sha muallif. Городище Миздахкан/Записки коллегии востоковедов при Азиатском музее Академии наук СССР.-Л-д, 1930, Т-5, -С 551-581.
6. Шишкин В.А. Исследования городища Варахша и его окрестностей//КСИММК-М,Наука, 1941,Вып-Х. С.3-15.
7. Voyevodsky M. A summary report of a Khwarizm. Expedition. Bill. Awer. Inst.for. Iran. Art and Arch. 1938. №3 –Р 235-245.
8. Латынин Б.А. Некоторые итоги работ Ферганской экспедиции в 1934 г//СА-М,: Наука, 1961, Вып-3. – С 109-170.